



**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLAR  
KAFEDRASI**

**TARIX FANIGA OID TADQIQOTLAR –  
YOSHLAR NIGOHIDA**

**TALABALAR ILMIIY-AMALIIY ANJUMANI  
MAQOLALAR TO'PLAMI**



**TOSHKENT – 2026**

### **Mas'ul muharrir:**

I.Bobojonov – Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

### **Tahrir hay'ati a'zolari**

I.Xo'jaxonov – Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

S.Ulfatillayeva – Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

### **Taqrizchilar**

H. Hamidov – Oriental universiteti “Ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrası professori, Tarix fanlari bo'yicha doktori

N.Sattorov – O'zMPU “Jahon tarixi” kafedrası dotsenti, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Oriental universitetida talabalarning ilmiy salohiyatini rivojlantirish, ularni mustaqil fikrlash va tadqiqot olib borishga yo'naltirish maqsadida Universitet Rektori buyrug'i bilan 2026-yil 18-fevral kuni “Ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrası tomonidan “Tarix faniga oid tadqiqotlar – yoshlar nigohida” mavzusida tashkil etilgan talabalar ilmiy-amaliy anjuman ilmiy maqolalari va tezislari o'rin olgan.

Unda talabalar, magistrantlar hamda yosh tadqiqotchilarning ilmiy faoliyati tadqiqiga bag'ishlangan qator ilmiy izlanishlari natijalari o'rin olgan.

Anjuman materiallaridan tadqiqotchilar, pedagoglar, oliy o'quv yurti talabalari manba sifatida foydalanishlari mumkin.

To'plamdagi maqolalar matni va mazmuniga mualliflar mas'uldir!

## **UBAYDULLAXON MA'NAVIY MEROSIDA ILM VA IYMON UYG'UNLIGI: MIR ARAB MADRASASI MISOLIDA**

*Bahodirova Robiya Ikrom qizi*

*Tarix fakulteti 3-kurs talabasi*

*Ilmiy rahbar: Jurayev Sherzod Norovich*

**ANNOTATSIYA.** Mazkur maqolada Ubaydullaxon ma'naviy merosida ilm va iymon uyg'unligi masalasi Mir Arab madrasasi misolida tahlil qilinadi. Tadqiqotda xonning ma'rifatparvarlik siyosati, tasavvuf va davlat boshqaruvi o'rtasidagi mutanosiblik, shuningdek, madrasa bunyodkorligidagi homiylik an'analari yoritiladi. Madrasa qurilishining me'moriy yechimlari, mikroiklim yaratishdagi ilmiy yondashuvlar, vaqf tizimi asosida moliyalashtirish mexanizmlari hamda ta'lim jarayonining tashkil etilishi tarixiy manbalar asosida ochib beriladi. Shuningdek, maqolada madrasa faoliyatining o'quv dasturlari, talabalar ijtimoiy himoyasi, mudarrislar faoliyati va ilmiy muhit shakllanishidagi o'rni tahlil qilinadi. XX asrdagi siyosiy o'zgarishlar davrida madrasa taqdiridagi burilishlar ham qisqacha ko'rib chiqiladi. Mir Arab madrasasi nafaqat me'moriy obida, balki ilm-fan va diniy-ma'rifiy qadriyatlar uyg'unlashgan yuksak ma'naviy markaz sifatida baholanadi.

**Kalit so'zlar:** Madrasa, Mir Arab, Ubaydullaxon, meros, Abdullaxon.

Buxoro xoligini tashkil topishiga ulkan hissa qo'shgan ma'rifatparvar xonlardan biri bo'lmish Abulg'oziy Ubaydulloh Bahodirxon ibn Mahmud Sulton ibn Shoh Budog' Sulton ibn Abulxayrxon 1486-yil Xorazmning Vazir shahri yaqinidagi Tirsak mavzesida yo'qlik biyobonidan vujud shahristoniga qadam qo'ygach valipanoq hazrat xo'ja Ubaydulloh Axror inoyat yuzasidan uni o'zining "Ubaydulloh" degan atoqli nomi va muborak ismi bilan atadi. Bu adolatli xon, ilm-u san'atlarni egallagan, rabboniy ilmlarni saltanat va podshohlik bilan birga qo'shib olib boruvchi Abulxayrxon sulolasidagi aql-u farosat husni xulqda boshi edi. Sayyidlar va shayxlar uchun bir yetuk darajada xomiylik qilar edi. Shulardan ma'lum va mashhuri Mir Arab madrasasidir. Ubaydullaxon tomonidan (921)1535- 1536-yillarda Poyi Kalon maydonidagi Kalon masjidining ro'parasida qurilgan[Sadriddin Ayniy, Esdaliklar]. Ubaydullaxon ushbu madrasani (921) 1515-yilda Sayramdan ( Isfojib) Buxoroga kelgan so'fiy shayx va din olimi Mir Arab laqabli Sayyid G'iyos tomonidan qurilgan mazkur inshootning o'xshashi topilmaydi deb ta'riflaydi. Kalon masjidiga qarab turuvchi monumental inshoot "qo'sh(aloq) tizim" deb mashhur bo'lgan "oyna" uslubi deb ataladigan uslubda kichik kvadrat shaklida qurilgan. Shuler bu madrasaning juda katta va ko'rkam binosi bo'lganligini, madrasada bir qancha hujra borligini, hujralarning eshiklari

hovli atrofidagi yo'laklar tomon ochilganligini aytadi[Abulg'oziy Bahodirxon, Shajarayi turk].

Ubaydullaxon boshchiligida qurilgan mazkur madrasasi Abdullaxon davrida va undan keyin qurilgan madrasalarga o'rnak bo'lib xizmat qildi. Masjidi Kalon ro'parasida sal balandroq ko'tarilgan sun'iy sahnlikda turgan Mir Arab madrasasi an'anaviy me'moriy usul asosida qurilgan. Hashamdor bosh peshtoq, tashqarida ikki burchakda ikki guldasta, peshtoq va guldastalar oralig'ida baland dumaloq ustuvor (baraban)larga o'rnatilgan ikki feruza gumbaz. O'ng tomonidagi gumbaz ostidagi xona bugungi kunda ham masjid vazifasini o'taydi. Darsxona vazifasini bajarishi lozim bo'lgan chap tomondagi bo'lmasida esa Ubaydullaxon hamda madrasa bunyodkori Abdulla Yamaniy o'z yaqinlari bilan ko'milgan. Hujralar bosh peshtoq tomonidagi ko'chaga (Masjidi Kalonga) qaratib ikki qator qilib qurilgan. Hovli burchaklari hujra ravoqlari bilan chegaralangan va to'rt devorning o'rtasida chuqur ravoqli to'rtta peshtoq ishlangan. Xilxona gumbazi to'rtta o'zaro kesishgan toq ustizga dekorativ gumbaz va aylana ustivoriga o'rnatilgan tashqi qubbadan iborat. Hovlidagi ayvonning yuqori qismida panjara bo'lgan.

Bino pardozida koshinkorlik va koshinburush sharqona naqshlari bilan bezatilgan. Madrasa shaxar markazida, qadimiy Shaxristonda joylashgan bo'lib, ikki ulkan gumbazi bilan boshqa tarixiy binolardan ajralib turadi. Madrasaning kirish qismi kunbotar tomonda. Darvoza ulkan peshtoq ostida joylashgan bo'lib to'rtta peshtoqdan iborat. Ayniqsa shimoliy va janubiy peshtoqlar baland qilib qurilgan. Bu shimol bilan janubdan esadigan shamoldan shaqlash hamda madrasa havosini tozalab turish imkonini beradi. Peshtoqlarning balandligi tahminan o'ttiz ikki metr. G'arbiy va sharqiy tomonda joylashgan peshtoqlar pastroq qurilgan. Bularning hammasi bino ichida o'ziga xos mikroiklim yaratadi. Bunday ma'lumotlar o'rta asrlarning binokorlarining ilm-u fahm farosati naqadar yuksakligi haqida ma'lumot beradi. Bundan tashqari madrasaning ko'shinlariga kam miqdorda tilla, mis, kumush, qo'rg'oshin qo'shilgan. Bularning hammasi ko'p yillar xizmat qila oladigan hamda sifatli bilan ajralib turadigan kvars qumiga aralashtirilib ishlatilgan[Bobojonova F. Buxoro me'moriy obidalar tarixi].

Madrasa Masjidi Kalon ro'parasida joylashganligi sababli ikki bino o'rtasida shaxar aholisi yurishi uchun yo'l bo'lgan. Madrasaning rejasi va undagi binolari huddi Ulug'bek madrasasidek joylashtirilgan. Shuningdek, madrasaning ichki qismiga keladigan bo'lsak, hujralarni to'rtta ulkan peshtoq ajratib turardi. Madrasa hovlisining chor atrofi ikki qavatli hujralar bilan o'ralgan. Hujralar ikkiga bo'lingan. Ayrim hujralarning old tomoniga kichkina ayvon solingan va unda qishga kerakli o'tin, ko'mir, oziq-ovqat mahsulotlari saqlangan. Ayrim

hujralarni ayvoni ichkarida bo‘lib, u yerda zarur zaxira buyumlari saqlangan. Hovlining burchaklaridagi hujralariga kiradigan qulay ravoqli eshiklar, qirrador kosasimon tokchalar, murakkab iroqi bezaklar bularning hammasi o‘n oltinchi asr madrasasini tipini egallaydi. Katta xonalarning ichi ayniqsa, diqqatga sazovor: to‘rt tarafda baland ravoqli chorsi xona, tepasi ravoqlar kesishishini oqibatida qalqonsimon iroqi shaklida joylashgan. Gumbaz o‘rtasi esa fonusdek. Mayda darchalar orqali tushgan yorug‘lik xonaga ulug‘vor ko‘rinish baxsh etadi. Madrasa hujralariga kichkina qozonxona (muri) ham o‘rnatilgan. Unda bir yoki ikki kishilik ovqat pishiriladigan o‘choq bo‘lgan. O‘choqda ovqat pishirilgandan so‘ng olovning cho‘g‘i qish vaqtlari sandalga solingan. Ham uy isigan, ham ovqat pishgan. Madrasadagi 114 hujra murshtari bir biriga payvandlab tutashtirilganligi bois, olov yoqilganida, hujralarni tutun bosmagan. Madrasani bezashda, asosan oq, sariq, yashil ranglardan unumli foydalanilgan. Qizil rang kishining qon bosimini ko‘taradi, deb hisoblashgan. Bundan tashqari, Buxoro issiq hudud bo‘lganligi sababli bu rang odamlarga ko‘p ham yoqmagan.

Madrasaning ichki hovlisida to‘planib qoladigan qor, yomg‘ir suvlari chiqib ketishi uchun tashnav qilingan. Tashnav esa shaxardagi oqava suvlar chiqib ketadigan tazar-kanalizatsiyaga ulangan. Tazar orqali ortiqcha suvlar shaxar tashqarisidagi zaxkashga borib tushgan.

Mir Arab madrasasi peshtoqlarning baland qilib qurilishi astronomik kuzatishlarni olib borish imkonini bergan. Shu tariqa madrasa oliy o‘quv dargohi sifatida mudarris, olim, adabiyotchi, amaldor, elchi, harbiy, imom, siyosiy arbob va hatto ma‘rifatparvarlarni yetishtirib chiqaradigan oliy o‘quv yurtiga aylanib bordi.

Xattot Mirali Fathobodiy-Buxoriy ushbu forsiy qit‘ani Madrasa darvozasiga yozgan: „Mir Arab faxri Ajam onki kard — Madrasai olii bas bul ajab. Bul ajab on ast ki tarixi u: Madrasai olii Mir Arab“ [Ahmedov M. O‘rta Osiyo me‘morchiligi]. Bosh tarzi ulkan peshtokli, darvozasi orqasida 5 gumbazli miyonsaroy, ikki yonida baland gumbazli keng darsxona va masjid, go‘rxona joylashgan. Koshinkori naqshlar yozuvlar bilan uyg‘unlashgan (saqlanmagan). Go‘rxona ichi gumbaz osti bag‘ali qalqonsimon muqarnasli, shipi va devorlari ganch o‘ymakorligida bezatilgan, izarasi rangbarang koshinli. Go‘rxonada Ubaydullaxon (1537-yil)ning yog‘ochdan xotamkori usulida ishlangan sag‘anasi va Mir Arab, uning qarindoshlari qabrlari bor. Tarixiy manbalarda madrasa 111 hujradan iboratligi ko‘rsatilgan. Biroq hozirgi mualliflar hujralar sonini Qur‘on suralariga muvofiq 114 ta hujra deya axborot beriladi.

Madrasaning umumiy 68,5x51,8 m, hovli 35,4x31,3 m, darsxona 8x8 m. Hovlisi to‘rtburchak shaklida bo‘lib, atrofini oldi ravokli, ikki oshyonli 114 hujra o‘rab turadi. Tomonlar o‘rtasidagi 4 baland peshtokli darsxona — ayvon hovli

mahobatini oshiradi. Tuzilishi jihatidan naqshinkor janirda peshtoqning dastlabki qiyofasi saqlanib qolgan, bu naqshlarning tarkibiy qismida yulduzsimon bezaklar uchraydi. Undagi bezaklarning saqlanib qolgan ayrim parchalaridan naqshlar g'oyat nafis va nozik bo'lganligini bilish mumkin.

Rivoyatlarga ko'ra, Madrasa asosi chuqur qilinib, tog' toshlari bilan mustahkamlangan, qor, yomg'ir suvini qochirish uchun tazarlar ishlangan, ular orqali suvlar shahar qo'rg'onidan tashqariga chiqarilgan.

Bizga ma'lumki madrasa Ubaydullaxon homiyligida va ko'plab vaqf mulklari hisobiga Shayx Abdulloh (Miri Arab) qurdirgan. O'zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat arxivida saqlanayotgan I-323-jamg'armadagi vaqf hujjatida ham 1527 yil madrasa uchun ajratilgan ko'p sonli dehqonchilik yer maydonlari, butun qishloqlar va boshqa mol-mulklar birma-bir sanab berilgan.

Mir Arab madrasa qurilishini nihoyasiga yetkaza olmay, 1536 yil boshida vafot etadi. Vasiyatiga ko'ra kuyovi Shayx Zakariyo qurilishni oxiriga yetkazgan. Shu tariqa madrasa oliy o'quv dargohi sifatida mudarris, olim, adabiyotchi, amaldor, elchi, harbiy, imom, siyosiy arbob va hatto ma'rifatparvarlarni yetishtiradigan oliy o'quv yurtiga aylanib borgan. Sadri Ziyo(1865-1932 yy.)ning ma'lumotiga ko'ra, Shohmurod Mir Arab madrasasining bitta hujrasida kechakunduz riyozat chekib ilm olish bilan shug'ullangan va xalq orasida "Amir Jannatmakon" laqabi bilan tanilgan. Amir Haydar ham shu yerda tahsil olgan. Amir Shohmurod madrasa talabalariga soliqlardan tushgan daromad hisobidan nafaqa (stipendiya) to'lashni joriy etgan.

Shuni ham qayd etish lozimki, madrasalarning moliyaviy xarajati vaqf daromadi hamda davlat xazinasidan ajratilgan qo'shimcha mablag' hisobiga qoplangan, har bir madrasaning o'z vaqf mulki va vaqfnoma hujjati bo'lgan. Vaqfnomada madrasaning chiqimi, undagi xizmatchilar: mutavalli, mudarris, hofiz, muhri, naqib, farrosh, oshpaz va boshqalar, shuningdek, talabalar soni, ularga berilgan maosh va nafaqalar aniq ko'rsatilgan. Har bir madrasaning xon tomonidan tayinlangan o'z mutavallisi bo'lgan. Mutavalli xodim va talabalarga to'lanadigan haq, vaqf yerlarida ishni tashkil etish, mardikorlar yollash, ijarachilar va hissadorlar bilan shartnoma tuzish, do'konlar, tegirmonlar va madrasaning vaqf mulkiga kiruvchi boshqa obyektlardan ijara haqini undirish va undan boshqa ishlarga mas'ul bo'lgan. Shuningdek, madrasa xizmatchilari, mudarrislari va talabalarga beriladigan yillik maosh miqdori naqd pul va oзуqalik don hisobidan ajratilgan.

Mutavalliga madrasadagi xizmat ko'rsatuvchi xodimlar (o'qituvchi-mudarrislardan tashqari) faoliyatini, ayrim hollarda esa talabalarning darsga qatnashish davomatlarini nazorat qilib turish yuklangan. Uning lavozimi otadan bolaga meros tariqasida o'tishi yo'lga qo'yilgan. Vaqf daromadlari madrasa

talabalari, mudarrislar, mutavalli va xizmat ko'rsatuvchi xodimlar o'rtasida shariat ko'rsatmalari asosida taqsimlangan. Madrasadagi talabalar soni va ularning o'qish muddati madrasa daromadiga bog'liq bo'lib, daromadga qarab madrasa xodimlarining soni ham belgilangan [Ostrumov N.P. Turkiston madrasalari haqida tadqiqotlar].

O'quv yili oxirida talabalar o'tilgan fanlar yuzasidan bevosita ota-onalar ishtirokida imtihon topshirgan. Madrasani muvaffaqiyatli tamomlagan talabalarga shahodatnoma – diplom berilgan. Hatto a'lo baholarda o'qigan talabalar amir tomonidan turli sovg'a va naqd pul mukofoti bilan taqdirlangan. Masalan, qo'shrabotlik talaba Kamoliddin Miri Arab madrasasini a'lo baholar bilan yakunlagach, unga amir Abdulahad sarupo kiygizib, "Qur'oni karim" va "Al-Jome' as-sahih" kitoblarini sovg'a qilib saroyda ishlashga taklif etgan.

Mir Arab madrasasida uzoq yillar davomida tahsil olib, bosh mudarrislik lavozimigacha ko'tarilgan Ahmadxon ibn Ismoilxon ham amirning buyrug'iga binoan dahyak olgan. Bundan tashqari, O'zR MDA'dagi "Qushbegi fondi" da yuz nafar a'lo bahoga o'qiydigan talabalarni taqdirlash uchun muftining amirga yozgan arizasi saqlanmoqda.

Fond hujjatlari bilan tanishganda amir "ziyoratchilari" ning ro'yxatlari ham saqlanishi aniqlandi. Ushbu hujjatlar Sadriddin Ayniyning: "Mir Arab madrasasidagi "ziyoratchi" talabalar madrasada yashab, har kuni tongda amir saroyidagi "Mehmonxonai Rahimxoniy" ga o'tirib Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) haqlariga salavot va duolar o'qib qaytganlar. Ular davlatdan har oy 30 tanga maosh olishgan. Bundan tashqari, har kun bitta non va mayiz olishgan", degan fikrini isbotlaydi.

Madrasaga asosan maktabni tugatganlar qabul qilingan. Talabalar yoshi 10 yoshdan 40 yoshgacha bo'lgan. E.K.Meyendorf, N.P.Ostroumov, N.V.Xanikov, P.I.Demezov, T.M.Aminov, V.L.Benin, D.N.Logofetlar tadqiqotlarida madrasada ta'lim 10 yildan 30 yilgacha bo'lishi va darslarda qaysi fanlar o'qitilishi haqida batafsil ma'lumot berilgan. Talabalar madrasaga imtihon asosida qabul qilingan. Ular bilim darajasiga qarab uch guruhga bo'lingan. A'lo (oliy), avsat (o'rta) va adno (quyi). Ular madrasa yotoqxonalarida yashash huquqiga ega bo'lgan.

Sadriddin Ayniyning yozishicha, madrasada haftada to'rt kunlik tahsil joriy etilgan. Ya'ni, yakshanbadan chorshanbagacha. Payshanba, juma, shanba kunlari dam olish kunlari hisoblangan. Odatda mashg'ulotlar sentyabrda boshlanib, mart oyigacha davom etgan. Yoz oylari va ramazon oyida ta'tilga chiqilgan.

Darslar bomdod namozidan keyin boshlangan. Dars ertalab soat 4:00 dan 10:00 gacha davom etgan. 12:00 da tushlik, so'ngra bahs-munozara. 16:00 dan 18:00 gacha dam olingan. Kechki ovqatdan so'ng yana tungacha bahs-munozara davom etgan. Talabalar o'quv kursiga qarab emas, balki qaysi kitobni

o'qiyotganligiga qarab jamoa-guruhlarga ajratilgan. Jamoa-guruh soni talabalar miqdori va madrasa qamroviga qarab belgilangan. Katta madrasalarda har bir guruhda 5-10 nafardan 20 nafargacha talaba tahsil olgan.

O'quv dasturlari uch qismga bo'lib o'rgatilgan: diniy adabiyotlar, umumta'lim fanlar va maxsus pedagogik fanlar. Madrasaning o'quv kursi, odatda, "Avvali ilm" deb nomlangan fors tilidagi o'quv qo'llanmasini o'zlashtirish bilan boshlangan. Madrasalarda to'liq kursni o'qib tugatish uchun talabalardan falsafa va huquq fanlariga oid taxminan 137 ta darslik-qo'llanmani o'zlashtirish talab etilgan. Bu darsliklarning aksariyatini Markaziy Osiyolik allomalarning asarlari, jumladan, Imom Buxoriy va Iso Termiziylarning hadis to'plamlari, Abu Mansur Moturidiyning "Kitob at-tavhid", Burhoniddin Marg'inoniyning "Al-hidoya fi sharh al-bidoya", Umar Qazviniyning "Ar-risola ash-shamsiya fil qavoid al-mantiqiyya", Abdurahmon Jomiyning "Al-favoid ad-diyoiya", Mahmud ibn Ahmad Mahbubiyning "Viqoyat ar-rivoya fi masoilil Hidoya", Ubaydulloh ibn Mas'ud Mahbubiyning "An-nuqoya" kabi asarlari tashkil etgan.

Bundan tashqari, talabalar qiziqishlari va mudarrislarning salohiyati hamda mavjudligiga qarab, handasa, tibbiyot, kimyo, jo'g'rofiya, tarix, adabiyot, aruz ilmi, me'morchilik (arxitektura) asoslari, xattotlik, musiqa, matematika, mantiq, astronomiya, arab adabiyoti, etika, notiqlik san'ati va gigiyena kabi fanlardan ham bilim olishgan. Masalan, Miri Arab madrasasida tahsil olib, shu yerda tib ilmidan saboq bergan olim Ahmadxon ibn Ismoilxon ham dorishunoslikka oid "Qarabodin Tayloqiy" va shogirdi Abul Baqo Maxzum ibn domlo Ernazar mudarris "Hujjatu-l-labib" nomli asarlarini ta'lif etishgan. "Qarabodin Tayloqiy" nomli risolada Miri Arab madrasasida ikkita hujra aynan bemor davolashga ajratilgani, unda muallif – Ahmadxon ibn Ismoilxon bemorlarni davolagani yozilgan. Bu haqda "Buxoro madrasalari tarixidan: Ahmadxon ibn Ismoilxon merosi" nomli kitobda to'liq ma'lumot berganmiz.

Afsuski, sho'rolar davriga kelib, 1920-1930 yillarda "madaniy inqilobchilar" tomonidan madrasalarning ko'pchiligi buzib tashlandi. Omon qolgan ayrim maktab va madrasalar birin-ketin yopila boshladi. Vaqf mulklari madrasalar tasarrufidan olinib, ularning faoliyatiga nuqta qo'yildi. Keyinchalik, ya'ni XX asrning 40 yillaridagi siyosiy vaziyat tufayli ichki siyosatda dinga nisbatan ba'zi yengilliklar berishga harakat qilindi. Buning natijasida 1945 yil 10 oktyabrda O'rta Osiyo va Qozog'iston musulmonlari diniy boshqarmasi qoshida diniy madrasa ochilishiga ruxsat berildi. Yuqoridagi buyruq asosida 1945 yil 29 noyabrda Diniy boshqarma ixtiyoriga ikkita diniy muassasa ochilishiga ruxsat berilganligi to'g'risida qaror qabul qilinib, Toshkent shahridagi Baroqxon va Buxoro shahridagi sobiq Miri Arab madrasasi faoliyatiga ruxsat berildi [Yusupov

R.M, Life science and Agriculture]. Mir Arab madrasasi 1946 yilda 30 ta talaba bilan, Baroqxon madrasasi esa 1956 yildan o'z faoliyatini boshladi. Bu ilm maskanidan islom dini ravnaqiga sezilarli hissa qo'shgan mashhur ulamolar yetishib chiqqan. Ular orasida rossiyalik Ravil Gaynutdin, boshqirdistonlik Talgat Tojuddin, chechenistonlik Ahmad Qodirov, ozarbayjonlik Olloshukur Poshshozoda, qirg'izistonlik Kimsanboy Abdurahmonov hamda turkmanistonlik Nasrulloxon Ibodulloyev kabilar ilm olganlar. [O'z MDA]

Shuningdek, bilim yurtini ochilishiga sababchi bo'lgan muftiy Eshon Boboxon, muftiy Eshon Ziyovuddinxon va zamonamizning taniqli ulamolari Abdulg'ani Abdullayev, Muxtorjon Abdullayev, Yusufxon Shokirov, Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, Fozil qori Sobirov, Rahmatulla qori Obidov, Abdurashid qori Bahromov, Usmonxon Alimov, Abdulg'afur Razzoqov va respublikamizdagi imom-xatiblarning aksariyati ham madrasaning faxriy talabalaridan bo'lganlar.

Bu madrasaning asrlar davomida ilm maskani bo'lib, ziyo nuri taratib kelayotganiga yana bir sabab bu madrasaga asos solgan ulug' zot naqshbandiya tariqatining ulug' piri Mir Arab sayyid Abdulloh Yamaniyning sharofati va barokatlaridan desak xech mubolag'a bo'lmaydi. Zero rivoyatlarda aytilishicha, shayx Mir Arab hazratlari, madrasa qiyomatgacha ilm va ta'lim maskani bo'lib qolishligini duo qilgan ekanlar.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Sadriddin Ayniy. Esdaliklar. – Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1982
2. Abulg'oziy Bahodirxon. Shajarai turk. – Toshkent: Sharq, 1992
3. Buxoro me'moriy obidalar tarixi. Feruza Bobojonova (2022)
4. Muhammad ahmedov O'rta Osiyo me'morchiligi kitobi.
5. N.P. Ostroumov. Turkiston madrasalari haqidagi tadqiqotlari
6. Yusupov R. M. Baroqxon va Mir Arab madrasalarining diniy muassasalariga kadrlar tayyorlash tarixidan lavhalar (1940—1960-yillar) // Life Science and Agriculture. — 2020. — № 2.1.
7. O'zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat Arxivi. I-323-jamg'arma materiallari (vaqf hujjatlari).

<b>Chotmurodov Umar</b> - TURKISTON GENERAL-GUBERNATORLARI FAOLIYATIGA OID AYRIM MA'LUMOTLAR.....	72
<b>Bahodirova Robiya Ikrom qizi</b> - UBAYDULLAXON MA'NAVY MEROSIDA ILM VA IYMON UYG'UNLIGI: MIR ARAB MADRASASI MISOLIDA.....	76
<b>O'rinboyeva Muslima Baxtiyor qizi</b> - XORAZM XONI ABULG'OZIY BAHODIRXON VA UNING "SHAJARAYI TURK" ASARI.....	83
<b>Ne'matov Xumoyun To'lqin o'g'li</b> – ANQARA JANGIDAN SO'NG AMIR TEMURNING USMONIYLAR SULOLASI VAKILLARIGA NISBATAN QO'LLAGAN SIYOSATI .....	86

### **TARIXIMIZDA QAHRAMON AYOLLAR: HAYOTI VA SIYOSIY FAOLIYATI**

<b>Kamoliddinova Omina Maxmud qizi</b> - SAROYMULK XONIMNING TEMURIYLAR DAVLATIDA SIYOSIY VA MA'NAVY FAOLIYATI.....	92
<b>Nabijonova Iroda Abdumutalib qizi</b> - JASORAT VA SIYOSAT CHORRAHASIDA: ZEBO G'ANIYEVA -TARIX SAHIFALARIDAGI QAHRAMON AYOL.....	96
<b>Ahmadjonova Fotima Anvarovna</b> - XIX ASR QO'QON XONLIGI SIYOSIY VA MADANIY HAYOTIDA NODIRABEGIMNING TUTGAN O'RNI.....	100
<b>G'ofurova Omina</b> - TEMURIY MALIKALAR: FARZAND TARBIYASI VA SIYOSIY FAOLIYAT.....	103
<b>Vaxobjonova Hadicha Shermuhammad qizi</b> - BIBIXONIM – SADOQAT, ZAKOVAT VA BUNYODKORLIK TIMSOLI.....	108

### **MANBASHUNOSLIK VA TARIXSHUNOSLIKKA OID TADQIQOTLAR**

<b>Xolmatova Sarvinoz</b> - TURK TARIXSHUNOSLIGIDA AFET INAN VA UNING TADQIQOTLARINI O'RNI.....	113
<b>Ma'mirov Mashhurbek</b> - AL-MA'SUDIY VA UNING TARIX ILMIGA QO'SHGAN HISSASI.....	119
<b>Murodov Muhammadqodir Muhiddin o'g'li</b> - QO'QON XONLIGI MADANIY HAYOTINI O'RGANISHDA HAZINIYXON IJODINING TUTGAN O'RNI.....	123
<b>Nig'matillayeva Fotimaxon</b> - MARKAZIY OSIYO ALLOMALARI ASARLARINING ZAMONAVY MANBASHUNOSLIKDAGI O'RNI.....	128

